Qabul qilindi: 5-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 9-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 13-noyabr 2026-yil


OROL DENGIZI FOJIASI

Xamidullayeva Mubinaxon Rustamxon qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti. Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti, menejment yo‘nalishi 92-26 guruh 1-kurs talabasi

E-mail: mubinaxamidullayeva2@gmail.com

Orcid: 0009-0008-8228-7039



Annotatsiya. Mazkur maqolada Orol dengizi qurishi muammosi tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi, uning sabablari va yechimlarini yoritiladi. Shuningdek bu ekologik xalokatning kelajakda qanday oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini izohlaydi.

Annotation. This article analysis the problem of the Aral Sea’s desiccation from a historical perspective, examining its causes and the solutions proposed. It also explains what consequences this ecological catastrophe may have in the future.


Kalit so‘zlar: Orol dengizi, ekologik halokat, paxta monokulturasi, Amudaryo, Sirdaryo, Qoraqum, Orolqum, IFAS, BMT.

Key words: Aral Sea, ecological catastrophe, cotton monoculture, Amu Darya, Syr Darya, Karakum, Aralkum, IFAS, BMT.

Orol dengizi xx asrning ikkinchi yarmigacha dunyodagi eng yirik suv havzalaridan biri bo‘lgan. U Markaziy Osiyo iqlimini yumshatib, mintaqa aholisini baliqchilik va dehqonchilik bilan ta’minlagan. Biroq 1960-yildan boshlab Amudaryo va Sirdaryo suvlarining katta qismi paxta maydonlarini sug‘orishga yo‘naltirilgani sababli dengiz tez qurib bordi va hozirgi kunda uning sezilarli qismi o‘rnida Orolqum cho‘li paydo bo‘ldi. Bu voqea tarixda eng yirik inson tomonidan yuzaga keltirilgan ekologik halokatlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ishning maqsadi Orol dengizi fojiasining tarixiy sabablari, rivojlanish bosqichlari va qutqarish bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarni tahlil qilishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi: sovet davridagi suv va qishloq

xo‘jaligi siyosatini o‘rganish, dengiz qurishning asosiy bosqichlarini xronologik tartibda yoritish hamda mustaqillik yillarida ko‘rilgan chora-tadbirlarni baholash.

Orol dengizining bugungi tanazzuli 1950-yillar sovet ittifoqining yangi iqtisodiy strategiyasi bilan bog‘liq. Mamlakatda yengil sanoat, o‘qdorilar va raketa yoqilg‘isi ishlab chiqarish uchun juda ko‘p miqdorda paxta kerak bo‘ladi va uni yetishtirish uchun eng ideal mintaqa bu Markaziy Osiyo edi. SSSR tarkibida bo‘lgan Turkmaniston, O‘zbekiston va janubiy Qozog‘iston uning paxtaa hirmoniga aylanadi. Paxtani sug‘orish uchun Orol dengizining asosiy manbaasi bo‘lgan Amudaryo va Sirdaryodan foydalanish hajmi keskin oshib ketadi. 1954-yilda Amudaryodan Turkmanistonga yiliga 12-13 kub kilometrgacha suv oqizadigan Qoraqum kanali qurilishi boshlanadi. 5 yillik ishlab chiqarish rejalari ko‘p miqdorda suv talab qilinardi. Amudaryo va Sirdaryo havzalaridan juda ko‘p miqdorda suvning ajralib chiqishi Orol dengizi tizimidagi muvozanatni keskin buzib yuboradi va u qurishni boshlaydi. Orol dengizining qurishiga 70% dan ko‘proq sabab bu inson omili bo‘lsa 30% iqlim o‘zgarishidir. Shu tariqa o‘tmishda bir necha marotaba qurib qayta tiklangan Orol dengizi yana o‘sha o‘tmishiga qaytdi.



Orol dengizi sathining pasayishi 20-asrning ikkinchi yarmida Orol dengizi suv hajmining 90% yo‘qolishi va uning o‘rnida Orolqum cho‘lining paydo bo‘lishi bilaan bog‘liq antropogen-tabiiy ekologik ofatdir. Zamonaviy olamlarning hisob kitoblariga ko‘ra, Orol dengizi sathining pasayishiga antropogen omillarning ta’siri 70% dan oshdi. Orolbo‘yida qishloq xo‘jaligining rivojlanishi, birinchi navbatda sug‘oriladigan yerlarda g‘o‘zaning intensive yetishtirilishi munosabati bilan keskin pasayish boshlandi. 1960-yillarga kelib plantatsiyalarni sug‘orish uchun Orol dengizini to‘ldiruvchi Amudaryo va Sirdaryoning butun oqimi demontaj qilindi, ko‘plab suv omborlari va kanallar qurilishi suv ta’minoti va bug‘lanish o‘rtasidagi muvozanatni buzdi. 1980-yilga kelib Orol dengizi 2 qismga bo‘lindi. 1986-yillarda dengiz sathi 53 dan 41 m gacha pasaydi. Berg bo‘g‘ozi butunlay qurib ketdu va Orol dengizi ikkita mustaqil suv omboriga ya’ni katta va kichik suv omborlariga bo‘lindi. 2002-yilga kelib, sathi yana 10 m ga pasaydi. Butunjahon meterologiya assotsiatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, Orol dengizining qurishi XX asrning eng

yirik texnogen ekologik inqirozlaridan biridir. Milodiy XIII-XIV asrlarda dengiz sathi sezilarli darajada pasaydi. Ehtimol uning darajasi 29 m dan pastga tushdi. Bunga mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga bostirib kelishi natijasida Amudaryoning Kasbiy dengizi tomon antropogrn burilishi jiddiy sabab bo‘lgan. Bundan so‘ng Xorazmning sug‘orish tizimlari vayron bo‘lgan va daryo O‘zbo‘y tubi bo‘ylab Kasbiyga qarab ketgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Orol dengizini qutqarish harakatlari boshlandi. Birlashgan Millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi Green Aral Sea nomli loyihasi bilan hamkorlikni boshladi. Mazkur liyoha Orol dengizi tubini ko‘kalamzorlashtirish orqali iqlim o‘zgarish oqibatlarini yumshatish va Qoraqalpog‘iston aholisining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan. Orol dengizini qurishiga befarq bo‘lmagan barcha tashkilotlar ushbu dasturga qo‘shilishdi. Orol dengizi o‘rnini o‘rmonzorlarga aylantirish uchun saksovul ekish harakatlari olib borildi. Saksovul dengizning quriga qismiga ekilishi mumkin bo‘lgan eng ideal o‘simlikdir. Chunki bu o‘simlik zararli va tuzli havoning tarqalishini olini oladi. 1 dona saksovul daraxti 4 tonnagacha bo‘lgan zararli changlarni o‘zida saqlab tura oladi. Orolgan saksovul daraxtlarini ekish ekologik muammolarni hal qilishning eng samarali chorasi edi. Bundan tashqari Orol dengizi havzasidagi ekologik inqirozz oqibatlarini yumshatish va ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash maqsadida 1993-yilda Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan xalqaro jamg‘arma ya’ni IFAS tuzildi.

Xulosa qilib aytganda Orol dengizi Osiyo davlatlarining mustaqil bo‘lishi uchun qurbon bo‘ldi. Orol fojiasi resurslardan o‘ylamasdan foydalanishning va sug‘orish siyosatidagi xatolarning oqibatidir. Dengizni to‘liq tiklash hozircha qiyin, shu bois asosiy e’tibor ekologik oqibatlarni kamaytirish, suvdan oqilona foydalanish va xalqaro hamkorlikni davom ettirishga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Micklin, P., Aladin, N.V., Plotnikov, I. (eds.). The Aral Sea: The Devastation and Partial Rehabilitation of a Great Lake. Springer Earth System Sciences. Berlin, Heidelberg: Springer, 2014. DOI: 10.1007/978-3-642-02356-9

2. Micklin, P. The Aral Sea Disaster. Annual Review of Earth and Planetary Sciences, 2007, vol. 35, pp. 47–72. DOI: 10.1146/annurev.earth.35.031306.140120

3. Yuldosheva B. Orol dengizi tarixi, qurish sabablari va hozirgi tadbirlar haqida maqola. Oriens.uz jurnali, 300–310-betlar.

4. “Orol dengizi fojiasi va unga sabab bo‘lgan Amudaryo suvlarining transchegaraviy boshqaruvi masalalari”. Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali.

